



## ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA USHLAB TURISHNI QO'LLASHNING PROTSESSUAL TARTIBI VA USHLAB TURILGANNI OZOD QILISH ASOSLARI

Ganiyev Shaxobitdin Xolmatovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti yuridik fanlar  
kafedrasida katta o'qituvchisi, mayor  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20133993>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 09-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 11-may 2026 yil

### KEYWORDS

*jinoyat, jinoyat protsessi, jinoiy jazo, protsessual majburlov, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, dalillar, shohidlar, uchinchi shaxslar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada protsessual majburlov chorasi hisoblangan ushlab turishni qo'llashning protsessual tartibi, ushlab turilganni ozod qilish asoslari borasida tushunchalar yoritilgan. Shuningdek, uni qonunda belgilangan tartibda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksning (keyingi matnlarda JPK deb yuritiladi) 220-moddasi 2-qismida "Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holatda ushlab turishga faqat surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qaroriga binoan yo'l qo'yiladi<sup>1</sup>" deb belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga mazkur qonunda ikkala jarayonlarda ushlab turishni amalga oshirishning tartibi ham belgilangan.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ushlab turish tartibi JPKning 224-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra ichki ishlar organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarning xodimi yohud boshqa vakolatli shaxs ushlab turishni JPKning 221-moddasida belgilangan asoslardan bittasi borligini bevosita aniqlasa yoki bo'lmasa boshqa shohidlarni so'zlaridan aniqlasa amalga oshirishi mumkin. Ushbu jarayonda ushlab turishning tartibi quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim hisoblanadi:

- 1) ushlangan shaxsga o'zini tanishtirishi va ushlab turilgan shaxsning talabiga ko'ra o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatini yoki xizmat guvohnomasini ko'rsatishi;
- 2) gumon qilinuvchiga u qaysi jinoyatni sodir etishda gumon qilinib ushlanganligini ma'lum qilishi;
- 3) ushlangan shaxsga yaqin qarindoshiga yoki advokatiga telefon qilishi yoki xabar berishi mumkinligini, shuningdek himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berishni rad etish, ya'ni istalgan vaqtda sukut saqlashiga oid huquqlarini tushuntirishi;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (<https://lex.uz/docs/111460>).

4) ushlab turilgan shaxsga tergovga qadar tekshiruv davomida u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini ma'lum qilishi;

5) ushlab turilgan shaxsdan yaqin atrofda joylashgan ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birgalikda borishini talab qilishi shart.

Ushlab turish amalga oshirilgan paytda ushlangan shaxsning yonida qurol borligi yoki u tomondan jinoyat sodir etilganligini fosh etuvchi dalillarni yo'q qilish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ushlab turishni amalga oshirayotgan vakolatli shaxs uni shaxsiy tintuv qilishga va aniqlangan narsalarni olib qo'yishni amalga oshirishga haqli hisoblanadi. Shaxsiy tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelingan paytda xolislar hozirligida tuzilishi mumkin.

JPKning 224-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shart hisoblanadi. Sababi JPKning 91-moddasi 4-qismiga ko'ra "shaxsni ushlab va shaxsni ushlab jarayonida o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yish protsessual harakatlari videoyozuv orqali qayd etilishi shart<sup>2</sup>" deb belgilab qo'yilgan.

JPKning 224-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishni kechiktirib bo'lmaydigan hollarda videoyozuv orqali qayd etmasdan amalga oshirishga yo'l qo'yiladi, faqat ushbu qoida ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ binosida amalga oshiriladigan ushlab turishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Shaxsni ushlab turish jarayoni videoyozuv orqali qayd etilmagan taqdirda, ichki ishlar organi xodimi yoki boshqa vakolatli shaxs ushlab turilgan shaxs yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinganidan so'ng videoyozuvdan foydalangan holda ushlangan shaxsga uning protsessual huqularini tushuntirishi shart. So'ng ushlab turilgan shaxsga videoyozuv uni namoyish qilish orqali tanishtiriladi.

Faqat shaxsni yalang'ochlash bilan bog'liq shaxsiy tintuvni amalga oshirish jarayonini videoyozuv orqali qayd etish taqiqlanadi.

Ushlab turish, shaxsiy tintuv yoki olib qo'yish bayonnomasiga ushbu protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilganligi haqida yozib qo'yiladi va videoyozuv materiallari bayonnomaga ilova qilib qo'shib qo'yilishi lozim.

Ushlab turish amalga oshirilayotgan paytda agar ushlangan shaxs ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari unga tarjimon ishtirokida birinchi so'roqqa qadar tushuntirilib, bu haqda bayonnomaga yozib qo'yilishi lozim. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida "Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart<sup>3</sup>" deb belgilab qo'yilgan. Shuningdek, JPKning 95<sup>1</sup>-moddasi (Dalillarning maqbul emasligi) 1-qismi 3-bandida "gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (<https://lex.uz/docs/111460>).

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/6445145>).

holda ulardan olingan faktik ma'lumotlar dalil sifatida maqbul emas deb topiladi<sup>4</sup> deb belgilangan.

Agarda, ushlab turishni amalga oshirishga vakolatli shaxslar va fuqarolar qonunga xilof yoki asossiz ushlab turganliklari yohud ushlab jarayonida vakolatlari doirasidan chetga chiqqanliklari uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar. Unga ko'ra, vakolatli shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 234-moddasi (Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish) bilan, fuqarolar esa 138-moddasi (Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish) bilan javobgarlikka tortiladilar<sup>5</sup>.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar gumon qilinuvchini ushlab turish huquqiga ega bo'lgan shaxslar JPKning 222-moddasida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra ichki ishlar organining, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi boshqa organning xodimi, shuningdek muomalaga layoqatli bo'lgan har qanday shaxs JPKning 221-moddasida ko'rsatib o'tilgan ushlab turishning asoslari mavjud bo'lgan taqdirda, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab va yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelishga haqli hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga binoan, "Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi<sup>6</sup>".

Shaxs jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ushlab turilganda, u bilan bog'liq bo'lgan tergovga qadar tekshiruv harakatlari 24 soat davomida o'tkazilishi, so'ng ushbu vaqt ichida jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish masalasi hal etilishi lozim. Tekshiruv natijalariga ko'ra ushlab turish asoslari tasdiqlanmasa, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarori chiqariladi va ushlangan shaxs ozod qilinishi kerak.

Jinoyat ishi qo'zg'atildandan so'ng ushlab turish faqat surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qaroriga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Bunda surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning ushlab turish va ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarori asosida ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organning xodimi ushlangan shaxsni JPKning 224-moddasi qoidalariga rioya etgan holda eng yaqin ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga darhol olib borishi shart. So'ng amalga oshirilgan ushlab turish haqida qaror chiqargan vakolatli shaxs darhol xabardor qilinishi kerak.

Jinoyat ishi qo'zg'atildandan so'ng ushlab turish amalga oshirilganda, ushlangan shaxsning jinoyatga aloqadorligini isbotlovchi dalillar to'planishi, shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar yig'ilishi, jinoyatni sodir etish holatlarini aniqlashtirish, ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish va ehtiyot chorasini qo'llash masalasini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan tergov harakatlari o'tkazilishi lozim.

Ushlab turish amalga oshirilgandan so'ng, ushlab turishning zarurati qolmasa ozod qilish chorasi ko'rilishi lozim. Albatta, ushlab turilgan shaxsni ozod qilish uchun asos bo'lishi kerak. Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish asoslari va tartibi JPKning 234-moddasida belgilab

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (<https://lex.uz/docs/111460>).

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (<https://lex.uz/ru/docs/111453>).

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (<https://lex.uz/docs/111189>).

qo'yilgan.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxs, agar:

1) jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon tasdiqlanmasa;

2) ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarurati bo'lmasa yoki uni qo'llash sud tomonidan rad etilsa;

3) ushlab turishning belgilangan muddati tugagan bo'lsa va ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmagan yoxud JPK 243-moddasi o'ninchi qismining 3-bandiga muvofiq ushlab turish muddati uzaytirilmagan bo'lsa, ozod qilinadi.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish uchun surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror chiqaradi, sud esa ajrim chiqaradi. So'ng ushbu qaror yoki ajrimga asosan shaxsni ozod qilish ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ushlab turish haqidagi qaror yoki ajrim ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyga kelib tushgan paytdan boshlab darhol ijro etilishi shart hisoblanadi.

Agarda, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ushlab turilgan shaxsni ozod qilish to'g'risidagi qarori yohud sudning ushlab turishni ozod qilish to'g'risidagi, shuningdek ushlab turish muddatini uzaytrish yoki ushlab turilgan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi ushlab turishning muddati ichida ushlab turilgan shaxslarni saqlanadigan joyga kelib tushmasa, mazkur joyning boshlig'i ushlab turilgan shaxsni darhol ozod qilishi lozim. Undan keyin ozod qilingani haqida xabarnomani ana shu ushlab turishni amalga oshirgan surishtiruvchiga, tergovchiga yoki prokurorga yuboradi.

Zarur hollarda ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning ma'muriyati ozod qilingan shaxslarning yashash joyiga tekinga jo'nab ketishini ta'minlaydi. Shu bilan birga ushlab turilgan shaxsning iltimosiga binoan qancha vaqt mobaynida ushlab turilganlar saqlanadigan joyda bo'lganligi haqida ma'lumotnoma beriladi.

JPKning 235-moddasida ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyonni undirish lozimligi belgilangan. Unga ko'ra "shaxsga qonunsiz ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan bo'lsa yoki JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ish tugatilgan bo'lsa, to'liq hajmda qoplanadi"<sup>7</sup> deb belgilangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, protsessual majburlov chorasi hisoblangan ushlab turishni qo'llash vakolatiga ega bo'lgan har bir xodim ushlab turishning protsessual tartibi hamda ushlab turilganni ozod qilish asoslari va tartibi bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishlari talab etiladi, chunki ushlab turish qonunga asoslanmagan holatda amalga oshirilsa, ushbu holat ushlab turishni amalga oshirgan shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
- 4.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T: Ўзбекистон, 2026. – Lex.uz.
- 5.Elektron ta'lim resurslari:
  1. 6.http://www.tsul.uz
  2. 7.http://www.norma.uz
  3. 8.http://www.gov.uz

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (<https://lex.uz/docs/111460>).

4. 9.<http://www.lex.uz>

5. 10.<http://www.lawbook.ru>



INNOVATIVE  
ACADEMY